

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.15/31.08.2022.T.73.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

NARMANOV AKBAR QUZIBOYEVICH

**YUQORI HARORATLI SHAROITDA ASFALTBETON
QOPLAMALARIDA YUZAGA KELADIGAN PLASTIK
DEFORMATSIYALARNI OLDINI OLISH USULLARI**

**05.09.02 — “Geotexnika” (Yo‘llar, yo‘llarni raqamlashtirish va yo‘l harakati xavfsizligi.
Yo‘l telematikasi yo‘nalishlari bo‘yicha)**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025 yil

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Narmanov Akbar Quziboyevich

Yuqori haroratli sharoitda asfaltbeton qoplamalarida yuzaga keladigan plastik deformatsiyalarni oldini olish usullari.....3

Narmanov Akbar Quziboyevich

Методы предотвращения пластических деформаций, возникающих в асфальтобетонных покрытиях при высоких температура25

Narmanov Akbar Quziboyevich

Methods for Preventing Plastic Deformations in Asphalt Concrete Pavements under High-Temperature Conditions.....49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....53

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.15/31.08.2022.T.73.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

NARMANOV AKBAR QUZIBOYEVICH

**YUQORI HARORATLI SHAROITDA ASFALTBETON
QOPLAMALARIDA YUZAGA KELADIGAN PLASTIK
DEFORMATSIYALARNI OLDINI OLISH USULLARI**

**05.09.02 — “Geotexnika” (Yo‘llar, yo‘llarni raqamlashtirish va yo‘l harakati xavfsizligi.
Yo‘l telematikasi yo‘nalishlari bo‘yicha)**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025 yil

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/T5763 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tstu.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Urokov Aslidin Xushvaktovich
texnika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponenlar:

Qosimov Ibrohim Irkinovich
Texnika fanlari doktori, professor

Amirov Tursoat Jummayevich
Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.15/31.08.2022.T.73.05 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil "___" ___ soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100167, Toshkent, Temiryo'lichilar ko'chasi 1-uy. Tel.faks: (998-71) 277-54-87, e-mail: tashiit_rektorat@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100167, Toshkent, Temiryo'lichilar ko'chasi 1-uy. Tel./faks: (998-71) 277-54-87, e-mail: tashiit_rektorat@mail.ru).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "___" _____ kuni tarqatilgan.
(2025 yil "___" ___ dagi ___-raqamli reyestr bayonnomasi).

I.S.Sadikov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi o'rinbosari, t.f.d., professor

R.M.Xudaykulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, PhD, professor

I.S.Sadikov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyaga avtoreferat)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda avtomobil yo‘llarining asfaltbeton qoplamalarida yuzaga keladigan plastik deformatsiyalarni o‘rganish, asfaltbeton qoplamalarining mustahkamligi va yuqori havo haroratiga chidamliligini hamda ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini ta‘minlash muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bunday tadqiqotlar orqali, yuqori haroratli sharoitlarda asfaltbeton qoplamalarining deformatsiyalanish sabablarini aniqlash, ularni kamaytirish hamda yuqori haroratga chidamli asfaltbeton qoplamalarini yaratish bo‘yicha innovatsion yechimlarni ishlab chiqish kabi masalalar muhim ahamiyatga ega. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, jahon miqyosida asfaltbeton qoplamalarida plastik deformatsiyalarni kamaytirish bo‘yicha keng ilmiy izlanishlar olib borilmoqda¹, jumladan, AQSh, Yaponiya, Germaniya va Janubiy Koreya kabi davlatlarda yuqori havo haroratining asfaltbeton xususiyatlariga ta‘siri, modifikatsiyalangan bitumlar qo‘llanilishi hamda ularning barqarorligini oshirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shuningdek, polimerbitumlar, nanostruktural qo‘shimchalar va mustahkam mineral aralashmalarni ishlab chiqish kabilar eng muhim ilmiy yechimlar sifatida qaralmoqda.

Jahonda avtomobil yo‘llarini ekspluatatsiya qilish bo‘yicha olib borilgan tajribalar va ilmiy tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, asfaltbeton qoplamalarda kuzatiladigan plastik deformatsiyalar, xususan g‘ildirak izi deformatsiyalarining yuzaga kelishi asosan yuqori harorat sharoitida sodir bo‘lmoqda. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy ishlar tahliliga ko‘ra, asfaltbeton qoplamasi tarkibida qo‘llaniladigan materiallarning fizik-mexanik va deformatsion xususiyatlari yuqori harorat ta‘sirida yuzaga keladigan g‘ildirak izi deformatsiyasi va uning rivojlanish tezligini belgilab beruvchi asosiy omil hisoblanmoqda. Hozirgi kunda, global iqlim isishi, xususan havo haroratining so‘ngi yillarda oshib borishi asfaltbeton qoplamalarida plastik deformatsiyalarning yuzaga kelish muammosini yanada oshirmoqda. Shu bilan birga, avtomobil yo‘llari qatnov qismida yuzaga keladigan plastik deformatsiyalar, xususan g‘ildirak izi deformatsiyasini tadqiq qilish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda avtomobil yo‘llarining xizmat muddatini oshirish, ularning ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini yaxshilash hamda amaldagi standartlar asosida belgilangan ta‘mirlash jarayonlari samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan “Yo‘l infratuzilmasini takomillashtirish va avtomobil yo‘llari tarmog‘ini jadal rivojlantirish”² bo‘yicha vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirishda, eng avvalo, zamonaviy talablar darajasida avtomobil yo‘llarini qurish va mavjud tarmoqlarni ekspluatatsiya qilish orqali ularning xizmat muddatini uzaytirish dolzarb ahamiyat

¹ <https://infotechnology.fhwa.dot.gov/straightedge/>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi farmoni.

kasb etadi. Shuningdek, tabiiy-iqlim omillari ta'sirida asfaltbeton qoplamalarda yuzaga keladigan g'ildirak izi deformatsiyalarini prognozlash, yo'l qoplamasining mustahkamlik ko'rsatkichlarini baholashda ilg'or hisoblash dasturlaridan foydalanish asosida avtomobil yo'llariga oid kompleks ma'lumotlar bazasini shakllantirish va ishlarini ilmiy asoslangan tarzda rejalashtirish, qoplamalarning uzoq muddatli xizmat ko'rsatishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, PQ-330-son "Yo'l xo'jaligi sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining VMQ-901-sonli "Avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va ulardan foydalanish ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II "Energetika, energiya va resurs-tejamkorlik, transport va asbobsozlik" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Hozirgi kungacha avtomobil yo'llaridagi g'ildirak izi deformatsiyalarning paydo bo'lish sabablarini o'rganish bo'yicha O'zbekiston va xorijda bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan xorijda: N.N.Ivanov, A.K.Birulya, A.M.Boguslavskiy, B.I.Ladigin, N.Ya.Xarxuta, A.P.Vasilev, M.L.Popov, V.D.Kazarnovskiy, M.S.Koganzon, A.V.Rudenskiy, A.V.Smirnov, N.N.Maslov, Y.M.Yakovlev, A.N.Aleksandrov, A.N.Yelgonov, B.V.Justareva, S.Yu.Kanigin, G.N.Kiryuxin, Z.A.Mevlidinov, A.A.Negomedzyanov, A.V.Edelman, V.B.Fadeev, Saad Al-Jafari, M.V.Nemchinov, M.B.Korsunskiy, B.P.Matua, L.I.Panasyuk, S.V.Lugov, Ye.V.Ugolova, O.A.Krasikov, Yu.A.Muravev, T.Vatanatade, F.V.Matvienko, V.Nijboyer, A.A.Berlin, O.Dobozi, J.Romona, R.Sotrrer, L.M.Goxman, M.I.Volkov, L.B.Gezensvey, N.V.Gorelishhev, N.V.Ivanov, A.F.Kemalov, A.S.Kolbanovskaya, M.I.Kuchma, A.I.Lisixina, V.V.Mixaylov, B.G.Pecheniy, P.A.Rebinder, D.A.Rozental, I.A.Ribev, V.A.Zolotarev, I.V.Korolev, A.M.Aliyev, Veverki, Gshvendt, Xusheka, Maksvell, O'zbekistonda I.S.Sodiqov, A.X.Urokov, I.I.Kasimov, Y.Maxmudov, Sh.X.Buriev, S.Z.Qurbonov va boshqalar ko'plab tadqiqot ishlari olib borishgan.

Ushbu olimlar transport oqimining harakat miqdori va tarkibini hamda yuqori havo harorati ta'siri natijasida asfaltbeton qoplamalarida plastik deformatsiyalarning shakllanish jarayonini o'rganishgan, lekin asfaltbetonning tiplariga bog'liq ravishda yuqori havo haroratida yuzaga keladigan plastik deformatsiyalarni to'raligicha o'rganishmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat transport universitetining "Avtomobil yo'llarini qurish va ekspluatatsiya qilish" kafedrasida olib borilgan "Avtomobil yo'llarini qurish va

ekspluatatsiya qilish uchun yo‘l-iqlim tumanlashtirishning metodologiyasi” (2022-2025 y) mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Respublikamizning yuqori havo-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda asfaltbeton qoplamalaridagi g‘ildirak izi deformatsiyalarini yuzaga kelishini tadqiq qilish va uni oldini olish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

asfaltbeton qoplamalaridagi plastik deformatsiyalarining yuzaga kelishi sabablarini va bu bo‘yicha bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilish;

yuqori havo harorati ta’sirida asfaltbeton qoplamalarida yuzaga keladigan g‘ildirak izi deformatsiyalarining asfaltbeton tiplariga va uning tarkibidagi tosh materiallarining mineralogik tarkibiga hamda asfaltbog‘lovchilari turiga bog‘liqligini laboratoriya sharoitida tadqiq qilish;

asfaltbeton tiplaridan kelib chiqib yuqori havo harorati ta’sirida yuzaga keladigan g‘ildirak izi chuqurligining me’yoriy ko‘rsatkichlarini aniqlash;

yozgi hisobiy davrlarda havo haroratining asfaltbeton qoplamasi haroratiga ta’sirini tadqiq qilish;

O‘zbekiston Respublikasi hududini asfaltbeton qoplamalarida g‘ildirak izi deformatsiyasi yuzaga kelish sharoiti bo‘yicha yo‘lga oid tumanlashtirish;

yuqori haroratli sharoitda asfaltbeton qoplamalarida yuzaga keladigan plastik deformatsiyalarni oldini olish usullarini ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida ekspluatatsiya qilinayotgan asfaltbeton qoplamali umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari tarmog‘i qabul qilingan.

Tadqiqot predmeti sifatida yuqori havo-iqlim sharoitida asfaltbeton qoplamali avtomobil yo‘llarida yuzaga keladigan g‘ildirak izi deformatsiyalari olindi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida eksperiment, tizimli va nazariy tahlil, matematik statistika, korrelyasion-regression tahlil va modellashtirish, yo‘lga oid tumanlashtirish, asosiy komponentlarni sintezlash usullari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- yuqori havo va qoplama harorati (60 °C va 70 °C)da yuqori mustaxkamlikka ega granit tosh materialini asosida tayyorlangan asfaltbeton qoplamasida yuzaga keladigan g‘ildirak izi chuqurligi ko‘rsatkichi eng kichik va me’yoriy chegaradan oshmasligi aniqlangan;

- modifikatsiyalangan polimerbitum qo‘llanilganda asfaltbeton qatlamlarida g‘ildirak izi deformatsiyasi chuqurligi 30–45 % gacha kamayishiga va qoplamaning ta’mirlashlararo xizmat muddati ikki barobarga oshishiga erishilgan;

- O‘zbekiston Respublikasi havo-iqlim sharoitini hisobga olgan holda turli tipdagi asfaltbeton qoplamalari uchun g‘ildirak izi chuqurligining me’yoriy ko‘rsatkichlari aniqlangan;

- yozgi hisobiy davrlarda asfaltbeton qoplamasi haroratining havo haroratiga bog‘liqlik qonuniyati va havo haroratining har 1 °C ga ortishi qoplama haroratini 3,5–4,0 °C ga ko‘tarilishiga olib kelishi aniqlangan;

- yuqori havo harorati ta'sirida asfaltbeton qoplamalarida g'ildirak izi deformatsiyasi yuzaga kelish sharoiti bo'yicha Respublika hududi yetakchi omil metodi asosida to'rtta yo'l tumaniga tumanlashtirilgan;

- yuqori haroratli sharoitda asfaltbeton qoplamalarida yuzaga keladigan plastik deformatsiyalarni kamaytirish va oldini olish maqsadida asfaltbeton tarkibini takomillashtirish usullari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Respublikaning yuqori havo harorati sharoitidagi hududlarida granitli tosh materiali asosida tayyorlangan asfaltbeton qoplamalarini amaliyotda qo'llash natijasida g'ildirak izi chuqurligi qoplama harorati 50 °C bo'lganda 11–13% ga, 60 °C bo'lganda 18–20% ga, 70 °C bo'lganda 24–26% gacha kamayishi asoslangan;

yo'l qurilishi obyektlarida BND 60/90 bitumga nisbatan modifikatsiyalangan polimerbitum PMB-40 qo'llanilganda g'ildirak izi chuqurligi 30–45 % gacha kamayishi asoslangan;

amaliyotda g'ildirak izi chuqurligining chegaraviy ruxsat etilgan me'yorlardan oshish muddati BND 60/90 bitum ishlatilgan asfaltbeton qoplamalarda 2–3 yilni, PMB 40 markali polimerbitum asosida tayyorlangan asfaltbetonlarda 4–6 yilni tashkil etadi va PMB 40 polimerbitumi asosidagi asfaltbetonlarda ta'mirlashlararo muddat BND 60/90 bitum asosidagi asfaltbetonlarga nisbatan 2 barobarga yuqori bo'lishi asoslangan;

amaliyotda A, B va V tiplardagi asfaltbeton qoplamalarida modifikatsiyalangan polimerbitum PMB40 qo'llanilishi yuqori havo harorati 70 °C da g'ildirak izi deformatsiyasini A tipda 52,2% ga, B tipda 43,4% ga, V tipda 19% ga kamaytirishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi laboratoriya sharoitida o'tkazilgan kompleks tajribalar yuqori aniqlikda ishlaydigan zamonaviy raqamli qurilmalarda, turli asfaltbeton tiplari va bitum markalari bo'yicha qayta-qayta o'lchovlar o'tkazilganligi hamda statistik tahlil asosida ta'minlandi. Natijalar mavjud ilmiy adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar bilan solishtirilib, ular bilan uyg'unligi ko'rsatildi. Shuningdek, yuqori harorat sharoitida olingan eksperimental qiymatlar mantiqan izchil va fizik-mexanik qonuniyatlarga mos kelishi tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, asfaltbeton qoplamalarida yuqori havo harorat ta'sirida yuzaga keladigan plastik deformatsiya jarayonlari turli bitum markalari va asfaltbeton tiplari misolida kompleks o'rganildi hamda ularning yuqori haroratda g'ildirak izlarining yuzaga kelishiga chidamliligi aniqlandi. Bu orqali g'ildirak izi deformatsiyasining yuzaga kelishi jarayonini havo haroratiga bog'liqligi ilmiy asoslandi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqot natijalari asosida turli hududlar uchun yuqori samarada ishlaydigan asfaltbeton tiplarini tanlash, ta'mirlashlar davriyligini belgilash va iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqilganligi va yo'l qurilishida qo'llash bo'yicha ko'rsatmalar berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yuqori haroratli sharoitda asfaltbeton qoplamalarida yuzaga keladigan plastik deformatsiyalarni oldini olish usullari bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

yuqori havo va qoplama harorati (60°C va 70°C)da yuqori mustaxkamlikka ega granit tosh materiali asosida tayyorlangan asfaltbeton qoplamasida yuzaga keladigan g'ildirak izi chuqurligi ko'rsatkichi eng kichik va me'yoriy chegaradan oshmasligi aniqlanganligi Avtomobil yo'llari qo'mitasiga qarashli O'zyo'lloyiha loyiha qidiruv instituti davlat unitar korxonasida amaliyotga joriy etildi (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari Qo'mitasining 2025 yil 07 oktabrdagi 02-4425-son ma'lumotnomasi). Natijada, asfaltbeton tarkibini takomillashtirish va granit asosidagi aralashmalardan foydalanish orqali asfaltbeton qoplamalarning yuqori haroratlarda plastik deformatsiyaga bardoshlilik oshirilib, g'ildirak izi chuqurligi kamayishi hamda qoplama xizmat muddati 1,5 barobarga uzayishiga erishilgan;

modifikatsiyalangan polimerbitum qo'llanilganda asfaltbeton qatlamlarida g'ildirak izi deformatsiyasi chuqurligi 30–45% gacha kamayishiga va qoplamaning ta'mirlashlararo xizmat muddati ikki barobarga oshishiga erishilganligi Avtomobil yo'llari qo'mitasiga qarashli Avtomagistral IAYKTB davlat unitar korxonasida amaliyotga joriy etildi (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari Qo'mitasining 2025 yil 07 oktabrdagi 02-4425-son ma'lumotnomasi). Natijada, modifikatsiyalangan polimerbitum qo'llanilishi orqali asfaltbeton qoplamalarning yuqori harorat sharoitlarida deformatsiyaga bardoshlilik 45-55% ga oshirilib, g'ildirak izi chuqurligi kamayishi, qoplama mustahkamligi va barqarorligining ortishi hamda ta'mirlashlararo muddat 2 barobarga oshishiga erishilgan;

O'zbekiston Respublikasi havo-iqlim sharoitini hisobga olgan holda turli tipdagi asfaltbeton qoplamalari uchun g'ildirak izi chuqurligining me'yoriy ko'rsatkichlari aniqlanganligi O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasiga qarashli Avtomagistral IAYKTB davlat unitar korxonasida amaliyotga joriy etildi (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari Qo'mitasining 2025 yil 07 oktabrdagi 02-4425-son ma'lumotnomasi). Natijada, turli tipdagi asfaltbeton qoplamalarda g'ildirak izi chuqurligining belgilangan me'yoriy qiymatlari asosida yo'llarning ekspluatatsion holati, deformatsiyaga chidamliligi, yuklangan transport oqimiga moslashuvchanligi hamda mustahkamlik darajasi baholandi. Ushbu baholash asosida qoplamalarning real xizmat muddati va ishonchlilik ko'rsatkichlari yaxshilanib, yo'lning ekspluatatsion ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha samarali yechimlarga erishildi;

yo'zgi hisobiy davrlarda asfaltbeton qoplamasi haroratining havo haroratiga bog'liqlik qonuniyati va havo haroratining har 1°C ga ortishi qoplama haroratini $3,5\text{--}4,0^{\circ}\text{C}$ ga ko'tarilishiga olib kelishi aniqlanganligi O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasiga qarashli markaziy sinov laboratoriyasi davlat muassasasida amaliyotga joriy etildi (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari Qo'mitasining 2025 yil 07 oktabrdagi 02-4425-son ma'lumotnomasi). Natijada, yuqori havo

harorati sharoitlarida asfaltbeton qoplamalari harorati aniqlangan va shunga asosan qoplama tiplari va bitum markasini to'g'ri tanlash imkoniyati yaratilgan hamda asfaltbeton qoplamalarining yuqori havo harorati (70 °C)ga bardoshlilik ta'minlangan;

yuqori havo harorati ta'sirida asfaltbeton qoplamalarida g'ildirak izi deformatsiyasi yuzaga kelish sharoiti bo'yicha Respublika hududi yetakchi omil metodi asosida to'rtta yo'lga oid tumanlarga tumanlashtirish natijalari O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasiga qarashli Toshkent viloyati yo'llardan muntazam foydalanish davlat muassasasida amaliyotga joriy etildi (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari Qo'mitasining 2025 yil 07 oktabrdagi 02-4425-son ma'lumotnomasi). Natijada, yuqori haroratli iqlim mintaqalar uchun mos asfaltbeton tiplarini to'g'ri tanlash va ularni optimal qo'llash imkoniyati yaratilgan;

yuqori haroratli sharoitda asfaltbeton qoplamalarida yuzaga keladigan plastik deformatsiyalarni kamaytirish va oldini olish maqsadida asfaltbeton tarkibini takomillashtirishga asoslangan samarali usullar ishlab chiqilganligi O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasiga qarashli markaziy sinov laboratoriyasi davlat muassasasida amaliyotga joriy etildi (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari Qo'mitasining 2025 yil 07 oktabrdagi 02-4425-son ma'lumotnomasi). Natijada, asfaltbeton qoplamalarining yuqori havo harorati (70 °C)ga barqarorligi va ekspluatatsion ishonchligini oshirilishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur dissertatsiya tadqiqot natijalari jami 6 ta, jumladan xalqaro va respublika miqyosidagi 3 ta ilmiy, ilmiy-texnik anjuman va seminarlarda hamda 3 ta xalqaro anjumanlarda ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, shulardan 1 tasi "Scopus" bazasida indekslangan. Shuningdek, 1 ta EHM dasturi uchun mualliflik guvohnomalari rasmiylashtirilgan.


Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 120 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti va predmetlari tavsiflangan, tadqiqotning usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy-ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Muammoning bugungi holati, tadqiqotning maqsadi va vazifalari”** deb nomlangan birinchi bobida O‘zbekiston Respublikasi avtomobil yo‘llari tarmog‘ining bugungi holati, asfaltbeton qoplamalarida yuzaga keladigan plastik deformatsiyalarni tadqiq qilish bo‘yicha bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlari tahlili, asfaltbeton qoplamalarida plastik deformatsiyalarini yuzaga kelish sabablari tahlili, O‘zbekiston Respublikasi havo-iqlim sharoitining o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilgan.

O‘zbekiston Respublikasidagi avtomobil yo‘llari tarmog‘ining hozirgi holati haqidagi rasmiy ma‘lumotlar Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasining rasmiy internet sahifasida e‘lon qilingan. Unga muvofiq, hozirda mamlakatda umumiy uzunligi 209469 km bo‘lgan avtomobil yo‘llari tarmog‘i mavjud. Yo‘l tarmog‘i zichligi har 100 km² hududga 47 km dan to‘g‘ri keladi. Mazkur yo‘llar umumiy foydalanishdagi (42695 km), ichki xo‘jalik (141882 km) hamda idoraviy (24745 km) turlarga bo‘linadi (1-rasm).



1-rasm. O‘zbekiston respublikasi avtomobil yo‘llari tarmog‘ining holati

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bilan uyg‘un ravishda xalqaro avtomobil yo‘llari tizimiga kiruvchi yo‘llarni o‘z ichiga oladi. Ular viloyatlar va tumanlarning ma‘muriy markazlarini, viloyat tasarrufidagi shaharlar, sanoat va madaniyat markazlarini o‘zaro bog‘lovchi hamda ushbu hududlarni xalqaro darajadagi transport arteriyalari, aeroportlar, temir yo‘l stansiyalari, daryo portlari, shuningdek qo‘shni mamlakatlar bilan integratsiyalovchi yo‘llardan iboratdir. Shuningdek, bu turdagi yo‘llar tuman markazlarini shaharchalar, qishloqlar, ovullar hamda davlat ahamiyatiga ega asosiy yo‘llar bilan birlashtiruvchi magistrallarni ham qamrab oladi.


Asfaltbeton qoplamalarida yuzaga keladigan plastik deformatsiyalarni o‘rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar keng ko‘lamda olib borilayotgan bo‘lsa-da, ularning shakllanish sabablari va rivojlanish mexanizmlarini O‘zbekiston Respublikasi havo-iqlim sharoitining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq holda tahlil qilish bugungi kunda dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Xususan, yuqori harorat sharoitida asfaltbeton qoplamalarining mustahkamlik xossalarini pasayishi va og‘ir transport vositalarining ortishi natijasida g‘ildirak izi ko‘rinishidagi plastik deformatsiyalar yuzaga kelishi yanada ortadi. Shu bois, mavjud ilmiy-uslubiy yondashuvlarni takomillashtirish, plastik deformatsiyalarning shakllanish

jarayonini kompleks tahlil qilish hamda ularni kamaytirish bo'yicha samarali yechimlarni ishlab chiqish zarur hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Asfaltbeton qoplamalarida g'ildirak izi deformatsiyasini yuzaga kelishiga havo-iqlim sharoitining ta'sirini tadqiq qilish”** deb nomlangan ikkinchi bobida asfaltbeton qoplamalarida plastik deformatsiyasining yuzaga kelishini tadqiq qilish qurilmalari va usullari, asfaltbeton tarkibini tashkil qiluvchi materiallarning xossalarini laboratoriya sharoitida tadqiq qilish, amaldagi standartlar asosida tayyorlangan asfaltbeton qorishmalarining turlari va ularga qo'yilgan me'yoriy talablar, asfaltbeton qoplamalarida yuzaga keladigan plastik deformatsiyalarning asfaltbeton tiplariga bog'liqligini tadqiq qilish, asfaltbeton qoplamalarida plastik deformatsiyasini yuzaga kelishiga havo haroratining ta'sirini tadqiq qilish keltirilgan.

Yuqori havo haroratli sharoitda asfaltbeton qoplamalarida yuzaga keladigan plastik deformatsiyalar, xususan g'ildirak izi deformatsiyalari avtomobil yo'llarining xizmat qilish muddati va harakatlanayotgan transport vositalarining harakat xavfsizligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bu muammoni tizimli o'rganish uchun zamonaviy laboratoriya qurilmalari, ya'ni statik va dinamik yuklamalarni qabul qila oladigan qurilmalar orqali turli yuqori harorat va og'ir transport vositalaridan qoplamaga tushadigan yuklamalarni tahlil qilish usullari keng qo'llanilmoqda.

Asfaltbeton qoplamalaridagi g'ildirak izi deformatsiyalarining yuzaga kelish jarayonini baholash maqsadida asfaltbetonning turli tiplari laboratoriya sharoitida UK-1 qurilmasida sinovdan o'tkazildi. Sinovlar o'tkazishdan oldin asfaltbeton qorishmasining donadorlik tarkibi, zichligi, bog'lovchi miqdori hamda mustahkamlik ko'rsatkichlari aniqlanib, GOST 9128 talablari asosida optimal tarkib tanlab olindi. Keyingi bosqichda, tanlangan tarkib asosida tayyorlangan namunalar (2-rasm) yuqori haroratlarda (50–70 °C) g'ildirak izining chuqurligi bo'yicha sinovdan o'tkazildi. Sinov jarayonida UK-1 qurilmasining termo-kameralari yordamida harorat $\pm 0,5$ °C aniqlikda barqaror ushlab turildi, bu esa o'lchovlarning aniqligi va ishonchligini ta'minladi. Olib borilgan tadqiqotlar asfaltbeton tiplarining yuqori haroratda plastik deformatsiyalarga bardoshlilik darajasini baholash, ularning yuqori haroratga chidamlilik xususiyatlarini aniqlash hamda amaliy qo'llanish samaradorligini ilmiy asosda tasdiqlash imkonini berdi.



a) Sinovdan oldingi holat




b) Sinov o'tkazilgandan keyingi holat


2-rasm. G'ildirak izining yuzaga kelishini sinash uchun tayyorlangan namunalar

Tadqiqot doirasida asfaltbeton namunalari ikki xil dolomit va granit turdagi tosh materiallaridan hamda BND 60/90 markali bitum bog'lovchisi asosida


tayyorlandi. Tayyorlangan asfaltbetonning A, B va V tipdagi namunalari 50°C, 60°C va 70°C haroratlarda g'ildirak izi chuqurligi bo'yicha o'lchangan natijalari o'zaro taqqoslandi (3, 4, 5-rasmlar).



3-rasm. Dolomit va granit tosh materiallaridan tayyorlangan asfaltbeton namunalarining 50°C haroratda g'ildirak izi chuqurligini laboratoriya tadqiqotlarida olingan natijalarining taqqoslanishi: a) – A tip; b) – B tip; d) – V tip.



4-rasm. Dolomit va granit tosh materiallaridan tayyorlangan asfaltbeton namunalarining 60 °C haroratda g'ildirak izi chuqurligini laboratoriya tadqiqotlarida olingan natijalarining taqqoslanishi: a) – A tip; b) – B tip; d) – V tip.




5-rasm. Dolomit va granit tosh materiallaridan tayyorlangan asfaltbeton namunalarining 70 °C haroratda g'ildirak izi chuqurligini laboratoriya tadqiqotlarida olingan natijalarining taqqoslanishi: a) – A tip; b) – B tip; d) – V tip.


Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, granit tosh materiallari asosida tayyorlangan asfaltbeton namunalari barcha A, B va V tiplar kesimida dolomit tosh

materiallaridan tayyorlangan asfaltbeton namunalariga nisbatan yuqoriroq haroratga va deformatsiyaga chidamli hisoblanadi.


Tadqiqot davomida asfaltbeton qoplamalarida yuqori harorat ta'sirida yuzaga keladigan plastik deformatsiyalarni oldini olish va yuqori haroratga bardoshlilikini oshirish maqsadida BND 60/90 markali bitumga nisbatan ko'rsatkichlari yaxshi bo'lgan quyimolekulyar polietilendan olingan polimerlar asosida modifikatsiyalashgan polimerbitumdan tayyorlangan asfaltbetonning A, B va V tipdagi namunalari tayyorlandi. Har bir tayyorlangan asfaltbeton namunalarida 50°C, 60°C va 70°C haroratlarda g'ildirak izi yuzaga kelishi bo'yicha sinovlar olib borildi (6, 7, 8-rasmlar).



6-rasm. BND 60/90 va polimerbitum(PMB40) lardan tayyorlangan asfaltbeton namunalarining 50 °C haroratdagi g'ildirak izi chuqurligi qiymatlari: a) – A tip; b) – B tip; d) – V tip.




7-rasm. BND 60/90 va polimerbitum(PMB40) lardan tayyorlangan asfaltbeton namunalarining 60 °C haroratdagi g'ildirak izi chuqurligi qiymatlari: a) – A tip; b) – B tip; d) – V tip.




8-rasm. BND 60/90 va polimerbitum(PMB40) lardan tayyorlangan asfaltbeton namunalarining 70 °C haroratdagi g'ildirak izi chuqurligi qiymatlari: a) – A tip; b) – B tip; d) – V tip.


Tadqiqot natijalariga ko'ra, haroratning 50 °C dan 70 °C gacha ortib borishi bilan, har ikkita bitum turlarida g'ildirak izi deformatsiyasi ortib bordi, biroq bu ortishning jadalligi bog'lovchining termoplastik xossalariga qarab sezilarli darajada farq qildi. Grafiklardan ko'rinib turibdiki, BND 60/90 bitum markasidan foydalanilgan asfaltbeton namunalarida deformatsiya chuqurligi eng yuqori bo'lib, u yuqori haroratga nisbatan moyillik darajasining yuqoriligini ifodalaydi. Aksincha, polimerbitum (PMB40) qo'llanilgan namunalar barcha haroratlarda eng past deformatsiya qiymatlarini ko'rsatgan, bu esa uning termik barqarorligi va yuqori haroratga nisbatan qarshilik darajasini tasdiqlaydi. Mazkur farqlanishlar quyidagi 9-rasmda asfaltbetonning A, B va V tiplari uchun g'ildirak izi chuqurligining haroratga bog'liq holda oshib borishi ko'rsatilgan.



9-rasm. Bitum markalariga qarab yuqori harorat ta'sirida asfaltbeton namunalarida yuzaga keladigan g'ildirak izi chuqurligining tadqiqot natijalari keltirilgan: a) – A tip; b) – B tip; d) – V tip.

Tadqiqot davomida asfaltbeton qoplamalarining yuqori haroratli sharoitlarda mustahkamlik ko'satkichlarini baholashda, ishlatilgan bitumning fizik-mexanik xossalari muhim omil sifatida alohida e'tibor qaratildi. Xususan, BND 60/90 va modifikatsiyalangan polimerbitum (PMB 40) markali bitumlardan tayyorlangan asfaltbeton namunalarida, harorat ortishi bilan plastik deformatsiyalarning dinamik o'zgarishi tahlil qilindi 10- rasm.





d)


10- rasm. Bitum markalari bo'yicha asfaltbeton tiplari uchun harorat ta'sirida g'ildirak izi chuqurligining umumiy taqqoslanishi keltirilgan: a) – A tip; b) – B tip; d) – V tip.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, asfaltbeton qoplamalarining yuqori haroratli sharoitlarda g'ildirak izi ko'rinishida yuzaga keladigan plastik deformatsiyalarga uchrash darajasi bir nechta omillarga, avvalo bitumning markasi, ishlatilgan tosh materiallarining turlari va mineralogik tarkibiga hamda asfaltbeton tipiga bevosita bog'liq ekani aniqlangan.

Dissertatsiyaning **“Yuqori havo haroratini hisobga olgan holda asfaltbeton qoplamalaridagi yuzaga keladigan plastik deformatsiyalarning oldini olish usullari”** nomli uchinchi bobida O'zbekiston Respublikasi hududini asfaltbeton qoplamalarining yozgi hisobiy davrdagi harorati bo'yicha yo'lga oid tumanlashtirish, yuqori haroratli ekspluatatsion sharoitlarda asfaltbetonning plastik deformatsiyaga chidamlilik xususiyatlarini baholash, O'zbekiston Respublikasi hududini asfaltbeton qoplamalarida g'ildirak izi paydo bo'lish sharoiti bo'yicha tumanlashtirish, yuqori haroratli sharoitda asfaltbeton qoplamalarida yuzaga keladigan plastik deformatsiyalarni oldini olish usullari keltirilgan.


O'zbekiston Respublikasi hududida asfaltbeton qoplamalarining ekspluatatsion xususiyatlariga ta'sir etuvchi eng muhim omillardan biri bu – yozgi mavsumda kuzatiladigan yuqori havo haroratidir. Asfaltbeton qoplamalarning ustki yuzasining harorati, yozda havo haroratiga nisbatan ancha yuqori bo'lishi natijasida plastik deformatsiyalar, xususan g'ildirak izi deformatsiyalari yuzaga keladi.

O'zbekiston hududi bo'yicha o'lchangan maksimal havo harorati va asfaltbeton qoplamasi harorati ma'lumotlari 11-rasmdagi grafikda keltirilgan. Grafikdan ko'rinib turibdiki, janubiy viloyatlarda havo harorati 46 °C atrofida bo'lganda qoplama harorati 72–73 °C gacha, shimoliy va sharqiy hududlarda esa havo harorati 41–44 °C bo'lganda qoplama harorati 58–66 °C gacha yetadi.




11-rasm. O‘zbekiston Respublikasi viloyatlari bo‘yicha yoz mavsumida kuzatilgan maksimal havo haroratlari hamda asfaltbeton qoplamasining ustki yuzasida o‘lchangan eng yuqori harorati

Yuqoridagi 11-rasmda keltirilgan ma’lumotlarga asosan havo haroratining asfaltbeton qoplamasi haroratiga bog‘liqlik qonuniyati yozgi hisobiy davr uchun aniqlandi (12-rasm).




12-rasm. Asfaltbeton qoplamasi haroratining havo haroratiga bog‘liqligi grafigi

Tadqiqotlar davomida havoning eng yuqori harorati bilan asfaltbeton qoplamasining eng yuqori harorati o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlandi (28-rasm). Natijada, qoplama haroratining hududlar bo‘yicha o‘zgarish dinamikasi tizimlashtirildi va O‘zbekiston Respublikasi hududida asfaltbeton qoplamasining maksimal harorati bo‘yicha yo‘lga oid tumanlashtirildi va hududlar to‘rtta yo‘l tumanlariga ajratildi 13-rasm.



13-rasm. Respublika hududini asfaltbeton qoplamalarining yuqori harorat bo'yicha yo'lga oid tumanlar chegarasini aniqlash grafigi

Ushbu grafik asosida Respublikamizdagi asfaltbeton qoplamalarining maksimal kuzatiladigan harorati bo'yicha yo'lga oid tumanlashtirish xaritasi ishlab chiqildi 14-rasm.




14-rasm. Respublika hududini asfaltbeton qoplamalarining yuqori harorati bo'yicha yo'lga oid tumanlashtirish xaritasi


Grafikda ko'rsatilganidek, havo haroratining 41–46 °C oralig'ida bo'lishi asfaltbeton qoplamasining 58–72 °C gacha ko'tarilishini ko'rsatadi (12-rasm). Hududiy farqlar natijasida ayrim tumanlarda qoplama harorati 70 °C dan yuqori bo'lgan ko'rsatgich qayd etildi.

Asfaltbeton qoplamalarining yuqori haroratli sharoitlarda barqarorligini baholashda g'ildirak izi chuqurligining haroratga nisbatan o'zgarishi muhim omillardan biridir. Harorat ortishi bilan bitum yumshab, plastik deformatsiyalarga moyilligi kuchayadi. Turli markadagi bitumlar harorat ta'siriga nisbatan turlicha bo'ladi, jumladan, oddiy bitumlarda (BND 60/90) yuqori haroratda yuqori deformatsiya kuzatilsa, polimer modifikatsiyalangan bitumda deformatsiya nisbatan kam bo'ladi.

Tadqiqotlar davomida har xil bitum turlaridan tayyorlangan asfaltbeton namunalarida 50°C, 60°C va 70°C haroratda g'ildirak izi deformatsiyasining chuqurligi aniqlanib, quyidagi 15, 16-rasmlarda taqqoslab keltirilgan.



15- rasm. BND 60/90 markali bitumdan foydalangan holda tayyorlangan A, B va V tipdagi asfaltbeton namunalarining harorat oshishi bilan yuzaga keladigan g'ildirak izi chuqurligining o'zgarishi: a) – A tip; b) – B tip; d) – V tip.




16- rasm. Polimerbitumdan foydalangan holda tayyorlangan A, B va V tipdagi asfaltbeton namunalarining harorat oshishi bilan yuzaga keladigan g'ildirak izi chuqurligining o'zgarishi: a) – A tip; b) – B tip; d) – V tip.

Grafiklardan ko'rinib turibdiki, harorat oshishi bilan asfaltbeton namunalarida yuzaga keladigan g'ildirak izi chuqurligi tez o'sadi, lekin

polimerbitum qoʻllangan asfaltbetonlarda bu koʻrsatkich oddiy bitumlarga nisbatan yaxshi natija berishini koʻrishimiz mumkin boʻladi.

Olib borilgan tadqiqotlar asosida aniqlanishicha, asfaltbeton tarkibiga qoʻshiladigan bogʻlovchi materiallarini turli polimer modifikatorlar yordamida modifikatsiyalash yuqori harorat sharoitida yuzaga keladigan plastik deformatsiyalarga qarshilikni oshiradi. Asfaltbeton qoplamasining yuqori harorat natijasida plastik deformatsiyalarga qarshilikni oshirishning asosiy usullari 17-rasmda keltirilgan.



17-rasm. Asfaltbeton qoplamalarida yuzaga keladigan plastik deformatsiyalarni oldini olish usullari

